

Namangan - Yekaterinburg - Namangan yo'nalishidagi aviaqatnovlar jadvali o'zgarishi

2022 21 Iyul

“Uzbekistan Airways” AJ Axborot xizmati faqat 2022-yil 25-iyul kuni rejalashtirilgan HY-9829/HY-9830 Namangan - Yekaterinburg - Namangan xalqaro yo'nalishidagi qatnov o'zgartirilgan jadval bo'yicha amalga oshirilishini ma'lum qiladi (mahalliy vaqt):

Namangandan jo'nab ketish: 08:05 (07:05 o'rniga)

Yekaterinburgga yetib borish: 11:30 (10:30 o'rniga)

Yekaterinburgdan jo'nab ketish: 13:00 (12:00 o'rniga)

Namanganga yetib borish: 16:10 (15:10 o'rniga)

Keltirilgan noqulayliklar uchun yo'lovchilar va ularni kutib oluvchilardan uzr so'raymiz.